BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOIY-MADANIY KOMMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Kenjayev Shavkatjon Xusanovich
Guliston davlat universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri

Xalqaro miqyosda bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion tayyorlash, zamonaviy ta’limni amalga oshirish bo‘yicha dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovatsion ta’lim muhitini yaratish muammolari xalqaro ta’lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta’lim tizimi uchun bo‘lajak yosh o‘qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan [1]. Bu borada aksiologik yondashuv asosida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetentlik tushunchasi ta’lim sohasiga pedagog - psixolog tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai-nazardan, kompetentlik "noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, hamkasblari bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Inglizcha "competence" tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni nazarda tutadi. Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar egallanishi va ularning amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, eng muhimi, ilmiy ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Mutaxassislarning kasbiy kompetentligi masalasini tadqiq etishga keyingi paytlarda qiziqish ancha kuchayib bormoqda. Bu borada qarashlar, fikr-mulohazalarning turli-tumanligi mazkur muammo xususida hozircha tizimlashtirilgan, yagona kontseptual model yaratishga imkon bermayapdi.

MDH mamlakatlarining qator olimlari kompetentlik tushunchasini psixologiya va pedagogika nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tadqiq etgan bo‘lsada, so‘ngi pedagogik tadqiqotlarda aynan mutaxassis - kadr kompetensiyasi masalasi o‘z dolzarbligi, katta qiziqish uyg‘otayotganligi va ta’lim jarayonini tashkil qilish, uning samaradorligini ta’minlash uchun muhimligi va zaruriyatini namoyon etmoqda. Ijtimoiy faol va harakatchan, tashabbus ko‘rsatib, o‘zining professional maqsadlarini aniq anglaydigan, yuksak madaniyatli, innovatsion fikrlash

qobiliyatiga ega va ta’limda yangiliklarni amalga oshirishga tayyor o‘qituvchi shaxsini shakllantirish va ta’minlash oliy ta’lim muassasalarining muhim vazifasi hisoblanadi.

Kompetensiya - u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlik. "Kompetensiya" (lot. competense - erishyapman, munosibman, loyiqman) - 1) muayyan davlat tashkiloti (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, nizom yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribalar majmui [4, 5]. Mazkur tushunchaning ijtimoiy mazmuni juda keng bo‘lib, u ishlab chiqarishning qariyb barcha yo‘nalishlarida qo‘llaniladi. Kompetensiya turli soha mutaxassislari faoliyatiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar majmuiga teng bo‘lib, uning kelib chiqish tarixi boshqaruv nazariyasi, ish jarayonini ishlab chiqarish maqsadiga adekvat va to‘liq mos tarzda to‘g‘ri boshqarish asosida uning samaradorligini so‘zsiz ta’minlash, menejmentlik amaliyoti, ishlab chiqarish jarayonidagi yuqori va pastki xodimlar mehnat faoliyatini qo‘yilgan maqsad va samaradorlikka yo‘naltirish bilan bog‘liqdir.Kompetensiyaga asoslangan shaxsni boshqarish yondashuvining asoschisi sifatida David Mc Clelland nomini qayd etish zarur [3, 145 b.]. Olim ishlab chiqarish jarayoni xususiyatlarining psixologik aspektlarini o‘rgangan bo‘lib, mutaxassis motivatsiyasini ishlab chiqarish jarayoni va maqsadlari bilan uzviy birlashtirish nazariyasining asoschisi sifatida taniladi.

Tarixiy jihatdan ta’lim tizimida "kompetentlik" tushunchasining kirib kelishi va uning ahamiyatining qabul qilinishiga nisbatan quyidagi bosqichlar ajratiladi: Birinchi bosqichda (1960-1970 yillar) — ilmiy doiralar va muomalaga «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari kirib keldi va ularning amal qilish qoidalari, qo‘llanilish xususiyatlari belgilandi. Birinchi bor "kompetensiya" atamasi 1965 yilda Massachusets universiteti o‘qituvchisi N.Xomskiy tomonidan ishlatiladi. Bu so‘zning semantik chegarasi bugungi kunda juda keng bo‘lib, aslida bu so‘z "kelishuv", "kelishuvchanlik", "biror bir narsaga mos kelish", "mos bo‘lish" ma’nolarini anglatadi. Bugungi kunda mazkur so‘z ko‘proq "faoliyat olib borishning universal, ya’ni hamma uchun mos bo‘lgan umumiy xususiyatlari va talablari majmuini" anglatadi.

Ikkinchi bosqichda (1970-1990 yillar) "kompetensiya" istilohining qo‘llanilish doirasi keskin o‘sadi, mazkur so‘z maxsus istilohga aylanadi va biror bir sohaga oid xususiyatlar jamlanmasini anglata boshlaydi hamda til nazariyasi, menejment, kommunikatsiyalarni tashkil qilishda qo‘llaniladi. J.Raven o‘ziga ilmiy vazifa qilib, zamonaviy jamiyat nuqtai nazaridan mutaxassislik kompetensiyasi nimaga teng degan masalani qo‘yadi va effektivlikni ta’minlovchi kompetensiyaning 37 ta komponentini ajratib, ko‘rsatib beradi va ularni "motivatsion qobiliyat" deb ta’kidlaydi [4].

Uchinchi bosqichda (1990-2001 yillar) butun dunyo, MDH da, xususan Rossiyada "Boloniya deklaratsiyasi" ijro va ta’lim taraqqiyoti uchun qabul qilindi, ta’lim islohotlarining maqsadlaridan biri mutaxassisning kvalimetrik ko‘rsatkichlarining bosh xususiyati qilib aynan "kasbiy kompetentlik" masalasi qo‘yila boshladi. Bu davrda Rossiyaning qator olimlari, xususan A.K.Markova [5], Ye. F. Zeera, A. V. Xutorskiy va boshqalar kasbiy kompetentlik tushunchasini psixologiya va pedagogika nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy va metodik jihatdan ishlab chiqdilar.

Mamlakatimiz pedagog olimlari A.Abduqodirov, R.H.Jo‘rayev, Z.K.Ismoilova, E.R.Yuzlikayeva, M.B.Urazova, K.D.Risqulovalarning tadqiqot ishlarida oliy ta’lim muassalarida ta’limni intensMashtirish hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanish, yosh o‘qituvchilarning kompetensiyasi va unga qo‘yiladigan didaktik talablar, ushbu atamaning mazmuni, uning tarkibiy qismlari, shakllanish bosqichlari, ta’lim samaradorligini ta’minlashda motivatsiyaning o‘rni haqidagi zamonaviy yondashuvlar kabi muammolarning ilmiy-nazariy asoslari o‘z aksini topgan.

K.J.Risqulovaning fikriga ko‘ra, "kompetensiya" u yoki bu kasb egasiga zarur bo‘lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me’yorlar yig‘indisini anglatadi. Kompetentlik esa — shaxs amaliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, kompetensiya me’yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahorati bilan belgilanadi" [6, 44 b.].

Kompetensiya tushunchasi shaxsga nisbatan umumiylik kasb etsa, kompetentlik individuallik xarakteriga ega. Kompetentlikning asosiy mezoni mahsuldor faoliyat, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash natijasi bilan belgilanadi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar va tadqiqot ishlarining tahlili "kompetensiya" tushunchasining turli xil ma'nolarini ajratish imkonini berdi.

Bular quyidagilar:

- ishlab chiqarish masalalarini yecha olish qobiliyati;
- aniq vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish qobiliyati;
- tashkilot tomonidan sub'ektning sifatli faoliyatini shakllantirish maqsadida xodimga qo'yilgan talablar yig'indisi;
- xodimning xulq-atvor me'yorlarining jamiyat talablariga mosligi;
- bilim, ko'nikma va malakalar (BKM), qobiliyat, motiv, shaxs, kommunikativ sifatlar va boshqa tushunchalarning umumiy yig'indisi;
- xodimning sifatli ishga tayyorgarligi va ko'nikmasi;
- lavozim vazifalariga mas'ulligi va vakolati;
- BKMQkasbiy muhim sifatlar, tashkilotchilik konteksti bilan birgalikda;
- kasbiy tajribani chuqur anglanishi;
- shaxsiy xususiyatlar majmui, individuallik;
- samarali ishlab chiqarish faoliyati mezonlari;
- ijodkorlik va boshqalar.

Oliy ta'lim amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni ularda ijtimoiy-madaniy kompetentlik darajasining rivojlanganligi bilan uzviy aloqador. Mazkur jihat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish muammosini maxsus tadqiq etishni taqozo etadi.

Pedagogik faoliyatda kasbiy kompetentlik umumiy tuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri - bu ijtimoiy-madaniy kompetentlik hisoblanadi. Zero zamonaviy o'qituvchi nafaqat o'quvchiga bilim beradi, ma'lumot, axborot yetkazadi, balki rivojlanayotgan shaxs va jamiyat o'rtasida vositachi rolini ham bajaradi. "Bola-shaxs-jamiyat" munosabatlari o'zaro aloqasining maqsadga muvofiq bo'lishi o'qituvchining qanchalik ijtimoiy hayotda kompetentli, omilkor ekangigiga ham bog'liqdir.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning asosiy vazifalari sirasiga moslashish, ijtimoiy yo'nalganlik, shaxsiy va umumijtimoiy tajribalarning uyg'unlashuvi kabi jihatlarni kiritish mumkin. Shaxs ijtimoiy-madaniy kompetentligining qay darajada ekanligi o'zaro shaxslararo munosabatlarni olib borish, faoliyatni yo'lga qo'yish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, psixologlar o'tkazgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, shaxsning yangi ijtimoiy, globallashuv shart-sharoitlariga moslashuvi jarayonida insonlardagi ijtimoiy kompetentlik darajasining shakllanganligi alohida o'rin tutadi [7, 8, 9, 10].

Ekologik, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy o'zgarishlar nafaqat ijtimoiy tafakkur rivojini belgilaydi, balki insonlarning o'zini o'zi anglashi, hayotiy qadriyatlari, shaxsiy muammolariga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu esa psixologiya fani oldiga insonning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy moslashuvi bilan bog'liq muammolarni hal qilish borasida uning kompetentlik darajasini yuksaltirishga yo'naltirilgan dasturlar yaratish vazifasini qo'yadi. Nazarimizda, mazkur vazifa nafaqat o'zaro, balki o'quvchilarning ham barkamol shaxs sifatida shakllanishiga mas'ul bo'lgan pedagoglar faoliyatiga ham alohida tegishlidir.

Shaxsning kompetentsiyaviy ijtimoiy xulq-atvori shakllanishi mexanizmlari, namoyon bo'lish tendensiyalari, motivatsiyasi, mazmuniga bo'lgan qiziqish, avvalo, "inson-jamiyat" o'zaro aloqasi xarakterining ijtimoiy ravnaqi, rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning mazmunini aniqlash maqsadida o'tkazilgan ilmiy adabiyotlar tahlili uning quyidagi o'ziga xos jihatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

birinchidan, ijtimoiy-madaniy kompetentlik o'zida jamiyat va madaniyat talablarini ifoda etishi mumkin. Bu esa, shaxsning ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmuni haqidagi bilimlarga,

madaniy talablar asosida faoliyat shakllarini tashkillashtirish ko‘nikmasiga egaligi hamda uning qadriyatli yo‘nalganligi bilan izohlanadi.

ikkinchidan, ijtimoiy-madaniy kompetentlik insonning ijtimoiy o‘zaro sheriklik, hamkorlik sub’yekti sifatidagi yaratuvchilik xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning mavjud imkoniyatlarini tadqiq etish maqsadida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga qo‘yilayotgan zamonaviy yondashuvlarni inobatga olib boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishining DTS va Malaka talablari o‘rganildi. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar quyidagilar: [2, 3 b.]

- dunyoqarash va ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi; gumanitar va tabiiy ilmiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- Vatan tarixini bilishi, madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lish;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma’naviy, madaniy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilish;

- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo‘yiladigan malaka talablari:

- pedagogik faoliyatni tashkil etish bilan bog‘liq qobiliyatlar;

- ilmiy tadqiqot faoliyati bilan bog‘liq qobiliyatlar;

- ma’naviy-ma’rifiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlar;

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlarga ega bo‘lishi talab etiladi[2,6].

Ijtimoiy-madaniy kompetentlilikni rivojlantirish jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan yangiliklar va rivojlanishlar bo‘yicha tushunchalar berib borish asosida ularda kasbiy kompetentlilikni muntazam rivojlantirib borishning korporativ asoslarini inobatga olishni taqozo etadi.

Xullas, kompetentlikga asoslangan yondashuvning maqsadi zamonaviy ta’lim nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, mutaxassisning nazariy bilimlari va uni amaliy qo‘llash o‘rtasidagi uzilishni yengishga intilishdir. Shuning uchun zamonaviy o‘quv jarayoni amaliyotda qo‘llanilishi qiyin bo‘lgan bilimlarni talabalarga berishdan iborat emas, aksincha shu bilimlarni dolzarb kasbiy muammolarni hal qilish uchun safarbar etish, shuningdek o‘quv jarayonida bu kabi muammolarni talabalarning o‘zlari mustaqil ravishda hal qilishlari uchun sharoit yaratishdan iborat bo‘lishi kerak.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning barcha xususiyatlarini to‘liq o‘rganish uchun quyidagi qator jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

- ta’lim-tarbiya jarayonida milliy, ma’naviy va tarbiyaviy qadriyatlarga talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning muhim omili sifatida qarash;

- bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun ularda yuqori darajadagi kommunikativ va psixologik to‘siqlarni kamaytirishga doir maxsus bilimlar tizimini shakllantirish;

- bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash masalasini hal qilish;

- ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbiy pedagogik ta’lim sharoitida ushbu jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi 5111700 -Boshlang‘ich ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari. Toshkent. 2018.08.25. 40 b. (3 b.)
5. Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Знание, 1996. - 340 с.
6. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar - ta’lim samaradorligi omili. Monografiya. - T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 184 b.
7. Колова С.М. Формирование социокультурной компетентности будуших специалистов. дис. ...канд. пед. наук. С. М. Колова. - Челябинск, 2002. - 190 с.
8. Елизарова, Г. В. О природе социокультурной компетенции [Текст] // Слово, предложение и текст как интерпретирующие системы. Studia Linguitica 8. СПб.: Тригон. 1998. С. 25-31.
9. Бердиева Х. Б. Развитие социокультурной компетентности у будущих учителей начальных классов //Педагогическое образование и наука. - 2020. - №. 1. - С. 128-131.
10. Бердиева Х. Б., Бердиева Н. У. Проблемы развития социокультурной компетентности у школьников начальных классов //Евразийское Научное Объединение. - 2019. - №. 12-5. - С. 408-410.